

INFLYATSIYA VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI MUVOZANAT: NAZARIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIK YO'NALISHLAR

Baratov Diyorbek Fazliddin o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs YaI guruh talabasi
E-mail: Diyorbekb2005@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyaga qarshi kurashning nazariy asoslari hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Makroiqtisodiy barqarorlik – bu iqtisodiy o'sishning uzluksizligi, narxlar darajasining nisbatan barqarorligi, yuqori bandlik darajasi va tashqi savdo muvozanatini o'z ichiga olgan kompleks holat sifatida talqin etiladi. Inflyatsiya esa narxlar umumiy darajasining ortib borishi orqali iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish, aholini ish bilan ta'minlash va tashqi savdo balansining makroiqtisodiy barqarorlikdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, inflyatsiyaga qarshi kurashishda markaziy banklarning pul-kredit siyosati, davlat byudjeti siyosati, narxlarni tartibga solish choralari va iqtisodiy diversifikatsiya strategiyalarining o'rni alohida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida inflyatsiyani jilovlash va makroiqtisodiy muvozanatni saqlashga qaratilgan samarali siyosiy yondashuvlar ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: makroiqtisod, inflyatsiya, iqtisodiyot, tannarx, pul-kredit siyosati, narx, diversifikatsiya, byudjet.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты обеспечения макроэкономической стабильности и борьбы с инфляцией. Макроэкономическая стабильность трактуется как комплексное состояние, включающее устойчивый экономический рост, относительную стабильность цен, высокий уровень занятости и сбалансированность внешней торговли. Инфляция, представляющая собой общий рост цен, оказывает негативное влияние на экономическую активность. В статье освещается роль экономического роста, контроля инфляции, обеспечения занятости населения и внешнеторгового баланса в обеспечении макроэкономической устойчивости. Также анализируются меры по борьбе с инфляцией, включая монетарную политику центрального банка, бюджетную политику государства, ценовое регулирование и стратегии экономической диверсификации. По итогам исследования предлагаются рекомендации по разработке эффективных политик для сдерживания инфляции и поддержания макроэкономического равновесия.

Ключевые слова: макроэкономика, инфляция, экономика, стоимость, денежно-кредитная политика, цена, диверсификация, бюджет.

Abstract

This article examines the theoretical and practical aspects of ensuring macroeconomic stability and combating inflation. Macroeconomic stability is interpreted as a comprehensive condition that encompasses sustainable economic growth, relative price stability, high employment levels, and a balanced foreign trade sector. Inflation, defined as a general increase in prices, can negatively affect economic activity. The article highlights the importance of economic growth, inflation control, employment generation, and trade balance in maintaining macroeconomic stability. It also explores various anti-inflation strategies, including the central bank's monetary policy, government budget policy, price regulation measures, and economic diversification strategies. Based on the findings, the study provides policy recommendations for effective inflation control and maintaining macroeconomic equilibrium.

Keywords: macroeconomics, inflation, economy, cost, monetary policy, price, diversification, budget.

KIRISH

Globalashuv sharoitida iqtisodiy beqarorliklar, inflyatsiyaning ortishi, geosiyosiy xavf-xatarlar va moliyaviy bozorlarning noaniq dinamikasi fonida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash har qanday davlat uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, inflyatsiyaning nazoratdan chiqishi aholining real daromadlariga, investitsion muhitga va umumiy iqtisodiy ishonchga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois inflyatsiyaga qarshi samarali choralarni ishlab chiqish va ularni makroiqtisodiy siyosat vositalari bilan uyg'unlashtirish ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun makroiqtisodiy barqarorlik – bu faqat iqtisodiy o'sish emas, balki narxlar darajasining barqarorligi, bandlikning yetarli darajada bo'lishi va tashqi savdo muvozanatini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Bu esa davlat tomonidan olib borilayotgan pul-kredit va fiskal siyosatlarning samaradorligini, shuningdek, iqtisodiy diversifikatsiya va strukturaviy islohotlarning doimiyligini talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyani nazorat qilish bo'yicha ilg'or nazariy yondashuvlar hamda amaliy tajribalarni tahlil qilish orqali ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Inflyatsiyaga bag'ishlangan P.Graud va M.Polan tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda 1969-1999-yillardagi 165 mamlakatdagi inflyatsion holatlar o'rganiladi. Mazkur tadqiqot mualliflari inflyatsiyaning miqdoriylik nazariyasi qoidalaridan biri bo'lgan — pullarning o'sish sur'ati va inflyatsiya darajasi o'rtasida to'g'ri mutanosiblik mavjud, degan qoida to'g'ri va statistik ma'lumotlarda tasdiqlanadi, degan xulosaga keldilar. Inflyatsiya sur'atlarining o'sishi bilan uning

pullar taklifiga bog‘liqligi yaqqolroq tarzda ko‘zga tashlanib boradi. Inflyatsiyaning oqilona darajasiga ega bo‘lgan mamlakatlarda korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,24 ga teng bo‘lgan bo‘lsa, inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda ushbu koeffitsiyentga yaqinlashdi. P.Graud va M. Polanlar tomonidan inflyatsiya darajasini uch qismga ajratgan holda – past, oqilona va yuqori darajalarga ajratgan. Korrelyatsion tahlil natijalariga tayanilgan holda pullar taklifi va inflyatsiya sur‘atlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab bergan. Inflyatsiya va milliy valyutaning nominal almashuv kursi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasiga oydinlik kiritgan. XX asrning 70-yillariga qadar Fillips kashf etgan inflyatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususidagi ilmiy xulosa amaliy ahamiyat kasb etdi.

Inflyatsiyaning yuqori sur‘atlarda o‘shishi davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirish bilan bog‘liq. Byudjet siyosati va inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi L. Katao va M. Terronza ilmiy ishida chuqur tadqiq qilingan³.

Mazkur tadqiqotning jiddiyligi shundaki, L. Katao va M. Terronza 107 mamlakat bo‘yicha 1960-yildan 2001-yilgacha bo‘lgan davrda inflyatsiya va byudjet defitsiti o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasini tadqiq qilganlar va bu borada mavjud bo‘lgan tendensiyalarni baholash imkonini beradigan muhim xulosalarni shakllantirganlar. Ana shunday xulosalardan biri, inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda Davlat byudjeti defitsitining qisqarish sur‘ati bilan inflyatsiya darajasi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud, degan xulosa hisoblanadi. Ushbu xulosa aniq hisob-kitoblarga asoslangan: inflyatsiyaning o‘rtacha yillik darajasi 50 foizga yaqin bo‘lgan mamlakatlarda Davlat byudjeti defitsitining YaIMdagi salmog‘ini 1 foizli punktga qisqarishi inflyatsiyaning 8,75 foizli punktga pasayishiga olib kelishi asoslangan.

Bunda Davlat byudjeti defitsiti va inflyatsiya o‘rtasidagi sezilarli statistik bog‘liqlik nafaqat yuqori inflyatsiya sharoitida, balki oqilona inflyatsiya sharoitida ham kuzatildi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, rivojlangan sanoat mamlakatlarida va inflyatsiya darajasi juda past bo‘lgan mamlakatlarda Davlat byudjeti defitsiti va inflyatsiya o‘rtasidagi sezilarli bog‘liqlik tadqiqot jarayonida kuzatilmagan. Bu esa, L.Katao va M.Terronzalarning fikriga ko‘ra, quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- hukumatga nisbatan ishonchning yuqori ekanligi;
- markaziy banklar mustaqilligining institutsional jihatdan himoyalanganligi;
- moliya tizimining rivojlanganligi.

Iqtisodiy adabiyotda inflyatsiya va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi aloqadorlik masalasida keskin munozarali fikrlar, xulosalar mavjud. Bir guruh iqtisodchi olimlar, shu jumladan, G.Xess va Ch.Morrislarning fikriga ko‘ra, baholarning sezilarsiz darajadagi o‘shishi ham iqtisodiy o‘shishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi⁴. Ularning fikriga ko‘ra, baholarning unchalik sezilarli darajada bo‘lmagan o‘shishi ham inflyatsiya dinamikasidagi noaniqlikni kuchaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, tijorat banklari kreditlari foiz stavkasining o‘shishiga olib keladi. Chunki kreditlarning foiz stavkasi o‘zida nafaqat kutilayotgan inflyatsiyani, balki risk uchun qo‘shimcha ustamani ham aks ettiradi. Natijada, mamlakatdagi iqtisodiy faollikka va aholining turmush darajasiga nisbatan kuchli salbiy ta’sir yuzaga keladi.

Ikkinchi guruh iqtisodchi olimlar esa (prof. M.A. Pivovarova, A.Kudrin va boshq.) inflyatsiyaning ma'lum darajasi sharoitida iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lishi mumkin, deb hisoblaydilar. Masalan, prof. M. Pivovarovaning fikriga ko'ra, inflyatsiyaning uncha yuqori bo'lmagan darajasi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, bunday sharoitda anti-inflyatsion siyosatni amalga oshirish ishsizlikning o'sishiga, iqtisodiyotning pasayishiga olib keladi. Bunday sharoitda, odatda, pullar taklifi ustidan qattiq nazorat o'rnatiladi.

METODOLOGIYA

Hozirgi zamon inflyatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo'lgan baholarni muntazam o'sishi natijasida pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya hamda kredit sohasidagi salbiy omillar bilan tasniflanadi.

Inflyatsiyaning yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo'lib iqtisodiyot tarmoqlari, jamg'arma va iste'mol, talab va taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo'jaliklarning pul massasi va unga bo'lgan talabi o'rtasidagi mutanosiblik hamda markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Ushbu ta'kidlab o'tgan omillar o'z mohiyatiga asosan inflyatsiyaga, uning darajasiga turlicha ta'sir etishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda inflyatsiyaning narxlarini o'sishi, ya'ni pullarning miqdori o'sishi jihatidan asosan uch shaklini ajratiladi:

Sokin (ползучая, умеренная) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ushbu holatda mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga o'rtacha 3% dan 10% gacha oshishi mumkin. Bu mamlakatlarda muomaladagi pul massasi saqlanib turadi va milliy pul birligining xarid qilish qobiliyati saqlanib turadi.

1. Shiddatli (галоппирующая) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ushbu holatda mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga o'rtacha 10% dan 100% gacha ba'zi holatlarda 200% gacha oshishi mumkin. Buning natijasida muomaladagi pul massasi ko'payadi va milliy pul birligining xarid qilish qobiliyati tushadi. Mamlakat aholisi o'rtasida pulning moddiylash-irish, ya'ni milliy pul birligini jamg'arishi emas, balki oltin, ko'chmas mulk holatida jamg'arishi jarayoni kuchayadi.

2. Jilovlanmagan (гиперинфляция) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya holatida mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga 1000% dan ortiq yoki oyiga 100% dan ortiq darajada oshadi. Ushbu holatda milliy iqtisodiyotda inqiroz yuzaga chiqadi. Buning natijasida ishlab chiqarish va bozor boshqaruvsiz faoliyat ko'rsatadiki, narx-navo va ish haqi o'rtasidagi farq ortadi. Mamlakat aholisi qo'lidagi qog'oz pullarga tovarlar sotib oladi. Bu holat esa muomalada tovar massasi bilan tovar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan ortiqcha qog'oz pullarni to'lib-toshishiga olib keladi.

Xalqaro amaliyotda iqtisodchi olimlar inflyatsiyaning yuzaga chiqadigan omillar asosan ikki guruhga: ichki va tashqi omillarga ajratadilar.

1. Ichki omillarni mohiyatiga asosan pullik (monetar) va pulsiz omillarga ajratish mumkin. Pullik omillarga davlat moliyasining inqirozi, byudjetning taqchilligini mavjudligi, davlat qarzdorligini ortishi, pul emissiyasi, kredit dastaklarining aylanishini ko'payishi, pul aylanmasining tezligi va boshqalar kiradi. Pulsiz omillarga milliy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi nomutanosiblik, tarmoqlar iqtisodiy rivojlanishdagi bir maromsiz daraja, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida monopoliyaning (oligopoliya) mavjudligi, narx shakllantirishdagi davlat monopoliyasi, markaziy bankning kredit ekspansiya va boshqa omillarni kiritish mumkin;

2. Tashqi omillar o'z mohiyatiga asosan biron aniq davlat rivojlanishiga ta'sir etadigan dunyoda amalga oshayotgan jarayonlarni aks etadi. Ushbu omillarga dunyo mamlakatlarda yuzaga chiqadigan soha inqirozlari hisoblanadigan xom-ashyo, energetika, neft, valyuta inqirozlarni kiritish mumkin. Ushbu omillardan tashqari biron-bir davlatning boshqa davlatlarga nisbatan olib boradigan davlat miqyosidagi valyuta siyosatini, yashirin holatda valyuta, oltinni eksportini amalga oshirilishini ham kiritish mumkin. Biz quyidagi chizmada inflyatsiyani yuzaga chiqish shakllarini tahlil etamiz. Ushbu chizma tahlilidan ko'rinib turibdiki, inflyatsiya asosan uch yo'nalishda yuzaga chiqadi. Birinchi yo'nalishda mahsulotlar, ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narxlarni asossiz ravishda o'sib ketishi tufayli pul qadrsizlana boshlaydi. Buning natijasida milliy valyutaning xarid qilish qobiliyati tushib ketadi. Ikkinchi yo'nalishda, xorijiy valyutalarga nisbatan milliy valyutaning kursi pasayib ketadi.

Buning natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar va mamlakat aholisi erkin muomaladagi xorijiy valyutalari (AQSh dollari, yevro, Shveysariya franki va boshqalarni) jamg'ara boshlaydi. Uchinchi yo'nalishda oltinga bo'lgan milliy pul birligida ifodalangan narx ko'tarilib ketadi. Buning natijasida mamlakat aholisi o'rtasida oltinning to'planib qolishi, ya'ni tezavratsiya amalga oshadi.

Xalqaro amaliyotda inflyatsiyaning narxlarini o'sishi, ya'ni pullarning miqdori o'sishi jihatidan asosan uch shaklini ajratiladi:

Sokin inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ushbu holatda mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga o'rtacha 3% dan 10% gacha oshishi mumkin. Bu mamlakatlarda muomaladagi pul massasi saqlanib turadi va milliy pul birligining xarid qilish qobiliyati saqlanib turadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shiddatli (галоппирюхая) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ushbu holatda mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga o'rtacha 10% dan 100% gacha ba'zi holatlarda 200% gacha oshishi mumkin. Buning natijasida muomaladagi pul massasi ko'payadi va milliy pul birligining xarid qilish qobiliyati tushadi. Mamlakat aholisi o'rtasida pulning moddiylash-irish, ya'ni milliy pul birligini jamg'arishi emas, balki oltin, ko'chmas mulk holatida jamg'arishi jarayoni kuchayadi.

Jilovlanmagan (гиперинфляция) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya holatida mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx- navolar yiliga 1000% dan ortiq yoki oyiga 100% dan ortiq darajada oshadi. Ushbu holatda milliy iqtisodiyotda inqiroz yuzaga chiqadi. Buning natijasida ishlab chiqarish va bozor boshqaruvsiz faoliyat ko'rsatadiki, narx-navo va ish haqi o'rtasidagi farq ortadi. Mamlakat aholisi qo'lidagi qog'oz pullarga tovarlar sotib oladi. Bu holat esa muomalada tovar massasi bilan tovar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan ortiqcha qog'oz pullarni to'lib-toshishiga olib keladi.

Inflyatsiya va uning rivojlanishi alohida olingan mamlakatda ma'lum xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Hozirgi davr inflyatsiyasi, utgan davr inflyatsiyasidan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Oldingi inflyatsiyalar vaqtinchalik bo'lib, ular odatda urush vaqtida harbiy xarajatlarni qoplash uchun qog'oz pullar chiqarilishi natijasida yuzaga kelgan. Biror daromad olmasdan turib, ya'ni ishlab chiqarish va tovar aylanmasi sur'atlarini oshirmasdan, yoki bu ko'rsatkichlar kamayib ketgan holda davlat tomonidan bo'ladigan xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy yo'llaridan biri qog'oz pullarni muomalaga chik;arishdan iborat bo'lgan. Natijada muomalaga chiqarilgan pullar, muomala uchun zarur bo'lgan oltin miqdoridan oshib ketgan va pulning real qiymati uning nominal qiymatidan tushib ketgan, ya'ni, haqiqatda pul birligi o'zida ko'rsatilganidan kam oltin miqdorni ifoda qila boshlagan.

Dunyoning turli mamlakatlarida hukumat tomonidan mavjud iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda inflyatsiyaga qarshi turli anti-inflyatsion siyosatni ishlab chiqaradilar va uni amalga oshiradilar. Davlat tomonidan anti-inflyatsion siyosatni olib borishda turli chora-tadbirlar hisoblangan byudjet, ijtimoiy, soliq, baho, kredit-moliya, sanoat-investitsiya, tashqi iqtisodiy va emissiyani amalga oshiradilar.

Byudjet siyosati – bu davlatning asosiy iqtisodiy siyosati hisoblanadi va uning asosiy maqsadi mamlakatning aniq belgilangan muddat mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari belgilanadi va amalga oshiriladi. Byudjet siyosati yordamida soliqlar va yig'imlar asosida yig'ilgan davlat moliya resurslarini umummilliy vazifalarini bajarish uchun qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi. Byudjet siyosatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib ijtimoiy siyosat hisoblanadi. Chunki mamlakatdagi ijtimoiy tadbirlarni moliyalashtirish asosan davlat byudjeti tomonidan amalga oshiriladi.

Inflyatsiya darajasi oshgan sari, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun rejalashtirish qiyinlashadi. Yuqori inflyatsiya bir nechta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Narxlar oshishi iste'molchilarni xarid qobiliyatini pasaytiradi, bu esa iste'mol talabining kamayishiga olib kelishi mumkin. Yuqori inflyatsiya investorlarni iqtisodiyotga investitsiya qilishdan tortinishi mumkin, chunki ular kelajakdagi daromadlarni aniq baholay olmaydilar. Iqtisodiy o'sishning pasayishi ish bilan ta'minlash darajasini kamaytirishi mumkin. Inflyatsiya ko'proq past daromadli qatlamlarga ta'sir qiladi, bu esa ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyani nazorat qilish uchun bir qator strategiyalar mavjud: Markaziy banklar inflyatsiyani nazorat qilish uchun foiz stavkalarini o'zgartirish orqali pul massasi va kredit shartlarini boshqarishlari mumkin. Yuqori foiz stavkalari iste'mol va investitsiyalarni kamaytiradi, bu esa inflyatsiyani pasaytirishga yordam beradi. Davlat xarajatlari va soliqlarni tartibga solish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish yoki inflyatsiyani nazorat qilish mumkin. Masalan, davlat xarajatlarini oshirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin, ammo ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilmasa inflyatsiyani kuchaytirishi mumkin. Ba'zi mamlakatlar muayyan mahsulotlar yoki xizmatlar narxlarini nazorat qilish orqali inflyatsiyani kamaytirishga harakat qiladilar. Biroq, bu usul ko'pincha bozor mexanizmlarini buzishi va ta'minot zanjirlarida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirish orqali inflyatsiyaning salbiy ta'sirlarini kamaytirish mumkin. Diversifikatsiya iqtisodiyotning mustahkamligini oshiradi va tashqi shoklarga qarshi chidamliligini kuchaytiradi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyaga qarshi kurash murakkab vazifadir, lekin bu jamiyatning iqtisodiy farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir mamlakat o'zining iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda samarali siyosatlarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi zarur. Ushbu masalalar ustida jiddiy muhokama olib borish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyani nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib, shuni aytib o'tish mumkinki, yuqorida aks ettirilgan har bir mamlakat bozor iqtisodiyotiga o'tish rejimining turli fazalarida bo'lganlari uchun, mazkur davlatlardagi iste'mol va chakana narxlari orasidagi farqlar ichki va tashqi omillar ta'sirida juda o'zgaruvchandir.

Inflyatsiyaning har tomonlama avj olib ketishi mamlakatda sotsial va iqtisodiy jihatdan qarama-qarishliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun, davlat inflyatsiyaning oldini olish, pul muomalasini barqarorlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Inflyatsiyaga qarshi kurashning asosiy shakllari: pul islohoti va inflyatsiyaga qarshi siyosat hisoblanadi. Pul islohoti deb, muomalasini barqarorlashtirish maqsadida davlat tomonidan pul tizimini o'zgartirishga aytiladi. Jahon amaliyotida pul islohoti metall pul muomalasi davrida, ikkinchi jahon urushidan keyin – oltin deviz, oltin dollar muomalasi davrida o'tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurazakov, Sh. I. (2019). "Iqtisodiy barqarorlik va inflyatsiyaning boshqarilishi: O'zbekiston iqtisodiyoti misolida". O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 6(12), 23-30.
2. Azizov, T. X. (2021). "Inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri: O'zbekiston tajribasi". Iqtisodiy tahlil jurnali, 4(8), 15-22.
3. Sattarov, R. A. (2018). "Makroiqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolat". Iqtisodiy siyosat jurnali, 3(7), 40-47.

4. Raxmonov, M. K. (2020). "Inflyatsiya va uning iqtisodiy tahlili". Moliyaviy iqtisodiyot jurnali, 5(9), 28-34.

5. Xolmatov, A. M. (2022). "O‘zbekiston iqtisodiyotidagi inflyatsiya va uning samarali boshqarilishi". Iqtisodiy rivojlanish jurnali, 7(10), 17-24.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi — Rasmiy statistik ma’lumotlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar taqdim etiladi. Ularning veb-saytidan turli iqtisodiy ma’lumotlar va statistikalarini topishingiz mumkin. (Rasmiy veb-sayti: UzStat) (<https://stat.uz/>)

7. O‘zbekiston Iqtisodiy Tahlil va Prognozlash Markazi — Iqtisodiy tahlil va prognozlar taqdim etuvchi muassasa. Ular iqtisodiy rivojlanish va sarmoyalar haqida chuqur ma’lumotlar beradi.

8. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali — Ushbu jurnalda iqtisodiy masalalar, jumladan, inflyatsiya va iqtisodiy islohotlar haqida maqolalar chop etiladi. (O‘zbekistonning iqtisodiy tadqiqotlari jurnali)



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**